

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

ALISHER NAVOIY GNOSEOLOGIYASIGA DOIR

Suvon Meli

O‘zR FA O‘zbek tili adabiyoti va folklori instituti bo‘lim mudiri, filologiya fanlari doktori

Annotatsiya: *Maqola Alisher Navoiy ijodidagi kam o‘rganilgan soha, buyuk shoir asarlari gnoseologiyasini tadqiq etishga bag‘ishlangan. Daho shoirimiz nafaqat buyuk adib, balki mutafakkir, faylasuf ham edi/ Uning falsafasi, gnoseologiyasi aniq teologik, ilohiy xarakterga ega bo‘lib, bu boradagi tadqiqot buyuk shoir ijodi qalbiga chuqurroq kirish imkonini beradi.*

Kalit so‘zlar: *gnoseologiya, teologiya (ilohiyot), antroposentrizm, teosentrizm, mutafakkir, badiiy-falsafiy asar, ezoterik olam, inson va olam.*

Yirik falsafiy istilohlarni badiiy ijod daholariga tirkash qanchalik o‘zini oqlaydi? Savol o‘rinli, chunki badiiy adabiyot va falsafa yovuq masofada tursa-da, alohida, mustaqil sohalardir. Falsafa tafakkur qonuniyatlarini o‘rgansa, badiiy adabiyot insoniy hissiyotga cho‘lg‘ongan voqea-hodisalar, kishilik munosabatlar va shunga bog‘liq fikr-tuyg‘ular tasviri va ifodasidan iborat.

Falsafa fanida muhim mavqeda turuvchi gnoseologiya istilohini badiiyat dahosi bo‘lmish Alisher Navoiy ijodiga qo‘llash mumkinmi, agar mumkin bo‘lsa, nimaga asoslanib? Biz daho shoirimizga qisqa ta‘rif berganimizda bejiz “buyuk shoir” iborasi yoniga “mutafakkir” so‘zini qo‘shmaymiz. Mutafakkir chuqur falsafiy fikrlash iste‘dodiga ega bo‘lgan kishidir. Bu so‘z ne-ne buyuk adiblarga ham mos tushavermaydi. Og‘irlik qiladi.

Binobarin, hazrat Navoiy nafaqat buyuk shoir, balki buyuk mutafakkir ham. Bu degani ul zot asarlarida tasvir etilgan, ko‘tarilgan masalalar, qo‘yilgan cho‘ng savollar inson aql-zakovati hamda inson ko‘ngli tubidagi olamshumul fikr-mulohazalardir.

Shunga bog‘liq yana bir masala. Gapni sal uzoqdan boshlasak. Ma‘lumki, “Farhod va Shirin” dostonida shunday mashhur bir bayt bor: “Temurxon naslidin sulton Ulug‘bek Ki, olam ko‘rmadi sulton aningdek”. Bilamizki, Sohibqiron bevosita Chingizxon avlodidan bo‘lmagani uchun o‘zini “xon” emas, “amir” deb atagan. Lekin Navoiy oradan bir asr o‘tgach ul zotni “Temurxon” deb sharaflamoqda. Shu gapni aytganimda olim do‘stlarimizdan biri, bu badiiy asar, unda turli fikr aytilishi mumkin, dedi. Shunda ongimda bir fikr chaqnadi. Alisher Navoiy asarlari, kichik fard va ruboiydan tortib yirik dostonlarigacha, faqat badiiy asar emas, ularda nozik badiiyat va chuqur tafakkur simbioz tarzda uzviy birlashgan, yaxlit kuchga evrilgandir. Shu boiz ularni badiiy-falsafiy, hattoki falsafiy-badiiy asarlar deb atamoq joiz. Ya‘ni bu asarlar bir paytning o‘zida ham badiiy, ham falsafiy, qolaversa, ham ilmiy qiymat va ahamiyatga ega. Shunday ekan, hazrat Navoiy buyuk bobokalonini “Temurxon” deya atar ekan, bu o‘rganilishi zarur bo‘lgan ilmiy masala ekani anglashiladi.

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Aytilganlardan kelib chiqib, maqola nomidagi falsafiy istilohni buyuk mutafakkir ijodiga tatbiq etish, ushbu nuqtayi nazardan unga diqqat qaratish mumkin va zarur deb hisoblaymiz.

Ayrim soxta vatanparvarlar shunday mavzularga qo‘l urilganda buyuk shoir ijodini yevropacha qoliplarga solish, deya baholashi mumkin. Lekin aslo bunday emas. Bu, aslida umumjahon falsafasida mavjud kategoriya va ta‘limotlar nuqtai nazaridan buyuk mutafakkir asarlaridagi tafakkur mevalarini ko‘rib chiqish hamda tadqiq etishga jazm etish bo‘lib, shunda bu ijod jahoniy falsafiy andozalar mezoniga, tarozusiga solib ko‘riladi. Natijada u umumjahon falsafiy maydoniga chiqadi. Bir paytlar o‘zi atagan “Emas oson bu maydon ichra turmoq”dagi “bu maydon” sarhadlari behad kengayadi.

Shundagina jahon falsafa ilmi Alisher Navoiy nafaqat buyuk shoir, balki buyuk faylasuf va donishmand ekaniga amin bo‘ladi. Gnoseologiya jahon falsafasining muhim kategoriyalaridan biridirki, uning talab va qonuniyatlarini Navoiy ijodiga qo‘llash, boshqa tarafdin shul ijod mohiyatidan kelib chiqib, gnoseologiyaning ham yangi kutilmagan jihatlari kashf etilishi mumkin. “Alisher Navoiy gnoseologiyasyai” nomli yirik tadqiqot navoiyshunoslikda butun bir davrni boshlab berishni oldindan gipoteza, ilmiy taxmin tarzda aytsa bo‘ladi.

Gnoseologiya yunoncha gnosis - bilish, bilim, ilm va logos – ta‘limot, nazariya so‘zlaridan tashkil topgan bo‘lib, u inson tomonidan dunyoni anglash jarayoni, uning sir-sinoatlarini bilishga bo‘lgan intilish qonuniyatlarini o‘rganishga yo‘naltirilgan falsafiy ta‘limotdir. “Olam va odam” tizimida dunyoni anglash, sub’yekt va ob’yekt o‘rtasidagi munosabatlar dialektikasi gnoseologiya shug‘ullanadigan masalalar ko‘lamini belgilaydi”. [3.] Ayni shu yerda yana bir badiiyat dahosining inson haqidagi bir fikrini keltirmoq joiz: “Inson – bu sir. Uni yechmoq lozim va agar bir umr uni yechishga urinsang, vaqtimni yo‘qotdim dema: men shu sirni yechish bilan bandman, zero inson bo‘lmoqni istayman”. [1.63] Bu buyuk adabiyotning, adabiyot falsafasi va adabiyot ezoterikasining hamisha harakatdagi mangu masalasidir. Badiiy adabiyot – insonshunoslik, insonni anglash, teran anglash san’atidir.

Alisher Navoiy o‘z asarlarida borliqning sir-sinoati, mohiyati, uni anglash va anglatish borasida o‘z qarashlari majmuasini yaratdi. Ushbu qarashlar dahoning badiiy va ilmiy asarlarida tarqoq durlar kabi sochilib yotmishdir. Ularni tartibga, sistemaga solish (sistema eng avvalo tartib deganidir), takror bo‘lsa-da aytamiz, jahon falsafasida qabul qilingan, o‘rnashgan yirik tushunchalar, falsafiy ta‘limot va kategoriyalar kesimida tadqiq etish Navoiy dahosining chinakam miqyosini belgilash imkonini beradi. Shu kunda, afsus bilan qayd etish lozimki, Alisher Navoiy falsafiy va ezoterik olamining

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

ASL MIQYOSINI biz ham, jahon ham yetarlicha bilmaydi. Biz, dahoning merosxo‘rlari bilmagach, jahon ham bilmasligi tabiiydir.

Tan olish lozimki, Navoiy dahosining asl miqyosini anglash va anglatish oson emas. Bu ulug‘ maqsad yo‘lida ancha ishlar qilinganini inkor etish insofdan bo‘lmaydi, albatta. Lekin ikki salbiy omil bunga to‘sqinlik qilgani bor gap. Birinchidan, mustaqil, suveren davlat emaslik. Agar birovga qaram, uning qosh-qovog‘iga qarashga majbur bo‘lsang, o‘z milliy dahongning butun bo‘y-basti bilan ko‘rsata olmas ekansan. Hukmron tarafning rashki hamisha halal beradi ekan. Ikkinchidan, sovet davrida aytgani aytgan, degani degan hukmron moddiyunchi ateistik mafkura bosimi. Fikri-zikrida, turmush tarzida, xatti-harakatida, tasvir va ifodasida hamisha Yaratganga yukingan, uning ilohiy qudratiga tahsin aytgan ijod bunday mafkura g‘ashiga tegishi aniq bo‘lib, shu boisdan uni buzib, mafkuraga moslab talqin etish qadamda uchraydigan hol edikim, bunday og‘uli ta’sirni ulug‘ shoir ijodi haqidagi tadqiqotlarda bot-bot uchrashini ko‘rish mumkin. Ushbu ikki salbiy omil sabab Daho ijodining umumfalsafiy, ayniqsa, ilohiy mohiyatiga adekvat tarzda kirish imkoni bo‘lmadi. Bu boradagi jiddiy urinishlardan biri sifatida akademik Vohid Zohidovning “Ulug‘ shoir ijodining qalbi” (Toshkent: O‘zbekiston, 1970) kitobini alohida ta’kidlash zarur. O‘zbek navoiyshunosligida o‘ziga xos voqea bo‘lgan bu asarga yo‘l-yo‘lakay baho berib bo‘lmaydi, albatta. Lekin bir xulosaviy gapni aytmoq joiz. Ya’ni davr mafkurasiga xos markscha-lenincha moddiyunchilik dunyoqarashi muallifni har qadamda cheklagan, natijada yalpi ilohiy-islomiy ruhda bo‘lgan ulug‘ shoir ijodi qalbiga (kitob shunday nomlanadi, axir) mutanosib ravishda kirish, afsuski, amalga oshmagan.

Buyuk shoir “Xamsa”ning ilk dostoni “Hayrat ul-abror”dagi “Avvalg‘i munojot”da barcha yaratiqlar ijodkori Tangri taologaga qarata

Avval o‘zung, oxiru mobayn o‘zung,

Borchag‘a xoliq, borig‘a ayn o‘zung,

deb yozgan bir paytda, ushbu kitobda deyiladi:

“Xudo tabiatdir, bundan tashqari borliq, hayot yo‘qdir, deb Navoiy xudoni (albatta kichik harf bilan – S.M.) qayerlardandir olib kelib, yetti qabat osmonlarning narigi tomonidan uni yerga tushiradi, inson va tabiatni ilohiylashtiradi va shu bilan ularning obro‘cini, qiymatini xudo darajasiga ko‘taradi, xudoni tabiatga singdirib yuboradi, Navoiyning o‘z tili bilan aytganda, xudoning o‘z husni o‘zini (xudoni) halok etadi...”. [2.303] Muallif buni “haqiqatga yaqinlashish”, deb hisoblaydi.

Bunday botil tasavvur bilan Navoiy badiiy-falsafiy olamiga qutlug‘ qadam bilan kirib ham, haqqoniy tavsiflab ham bo‘lmaydi. Buyuk mutafakkirning bilish nazariyasi, gnoseologiyasiga bunday yo‘l bilan yaqinlashib bo‘lmasligi ayondir. To‘g‘ri, Tangri

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mavzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

taolo haqida bunday fikrlar ko‘plab aytilgan, yozilgan. Davr mafkurasi shunday bo‘lgan. Buning ustiga, bu dunyoni tark etgan ustozlarimi, jumladan, yirik navoiyshunos va faylasuf olim, akademik Vohid Zohidovga hurmatimiz bisyor. Ammo agar hazrat Navoiy dunyoqarashi haqida o‘sha paytda aytilgan fikrlarga tanqidiy yondoshmasdan, ularni isloh qilmasdan ushbu masalada olg‘a qadam tashlab bo‘lmasligi ham shoyon haqiqatdir.

Alisher Navoiyning borliq haqidagi qarashlari, ya’ni ontologiyasi va bilish qonuniyatlari, usullari, ya’ni gnoseologiyasi borasida samarali ilmiy fikr yuritish uchun daho o‘zi e’tiqod qilgan, olg‘a surgan g‘oya va aqidalarga cheksiz ehtirom lozim bo‘ladi. Iymonli ijodga iymonli tadqiqot zarurdir. Aks holda Daho o‘z qalbini, ko‘nglini ochmaydi.

Navoiy ijodiyotida Inson mavzusi va g‘oyasi alohida mavqeda turadi. “Lison ut-tayr” dostoni muqaddimasida butun olamni yaratishdan maqsad Inson bo‘lib, uni mavjudlar ichida tengi yo‘qdir, deya

Ko‘nglin oning mahzani irfon qilib,

Ul tilsim ichra O‘zin pinhon qilib.

Ya’ni, uning ko‘nglini bilim, ma’rifat xazinasini qildi, bu tilsim ichiga O‘zini yashirdi. Shu yerda mumtoz adabiyotimiz, xususan Navoiy ijodi uchun g‘oyat muhim g‘oya, Yaratgan, Tangri g‘oyasi Inson bilan yonma-yon, baqamti, undan behad ustun bir mavqeda yuz ko‘rsatadi. Shunda bir savol o‘rtaga chiqadi: Navoiy ijodida Inson va Tangri munosabati qanday nisbatta? Mutafakkir falsafa tili bilan aytganda Antroposentristmi yoki Teosentrist? Navoiy tafakkur tarzida ularning qay biri yetakchilik qiladi?

Antroposentrizm – “inson olamning markazi, hamma narsa u bilan bog‘liq va u hamma narsada namoyon bo‘ladi, kabi qarashlarni anglatadigan tushuncha”. [3.89]

Afsuski, ushbu qomusda teosentrizm haqida maqola yo‘q. Lekin shu kitobdagi “teologiya” masalasida Xudo haqida shunday yoziladi: “Xudo – o‘zining quvvati bilan butun borliqda mavjud bo‘lgan eng kichik, tirik zarrachaning ham, eng katta tirik mavjudotning ham ichida alohida mavjud bo‘la oladigan, ayni paytda butun borliqni nazorat qilib boshqarib buradigan, cheksiz qudratga ega bo‘lgan Oliy Ruhdir”. [4.313] Shulardan kelib chiqib hamda antroposentrizmga berilgan ta’rifni Xudo tomonga burib, teosentrizmga shunday ta’rif berish mumkin, ya’ni butun mavjudotni yaratuvchi va boshqaruvchi Xudo hamma narsa bilan bog‘liq va u hamma narsada namoyon bo‘ladi degan tushuncha va e’tiqod. Bu jabhada hazrat Navoiy shubhasiz teosentrizm tarafdoridir. Tom ma’nodagi xudojo‘ylik buyuk mutafakkir ijodi va dunyoqarashining yetakchi belgisidir.

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Shuning uchun ham Navoiy ijodini gnoseologiya nuqtai nazaridan o‘rganadigan bo‘lsak, qoim bir qonuniyat yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ya’ni bu muazzam ijodda gnoseologiya ilohiyot (teologiya) bilan birikib, yaxlit hodisa va qonuniyatga aylanib ketadi. Bunda olam va odamni anglash, odam olamni bilish jarayonlari muqarrar ravishda Yaratganga borib taqaladi. Bu esa buyuk mutafakkir ijodi va dunyoqarashidagi (ya’ni ijodda va ijoddan mujassam bo‘ladigan dunyoqarash) sobit tayanch nuqtadir.

Ayrim xulosalarimiz.

1. Har qanday ijodkor, hatto buyuk ijodkorga gnoseologiya kabi salmoqli falsafiy ta’limotni qo‘yib bo‘lmaydi. Buning uchun ijodkor borliq va inson munosabatlari, tafakkurga oid masalalarni o‘z asarlarida katta kuch bilan olg‘a surgan, tasvir va ifoda etgan bo‘lishi lozim. Hazrat Navoiy ayni shunday ijodkorlardan biridir.

2. Alisher Navoiy asarlaridagi borliq va insonni anglash qonuniyatlarini idrok va tadqiq extish buyuk shoir badiiy olamining falsafiy-ezoterik mohiyatini ochadi hamda uning jahon falsafasidagi (faqat adabiyotida emas) o‘ziga munosib o‘rnini tayin etadi.

3. Buyuk mutafakkir ijodi gnoseologiyasi ilohiyot (teologiya) bilan chambarchas bog‘liqdirki, ushbu bog‘liqlik asosidagina mazkur ijod qalbini samarali ochish va tadbqiq etish va bunga ilohiyot gnoseologiyasi deya ta’rif berish mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Достоевский Ф.М. П.с.с. в 30-ти т. т. 28. (1), - Л.: Наука, 1985. С. 63.
2. Зоҳидов В. Улуғ шоир ижодининг қалби. Т.: Ўзбекистон, 1970. 303-бет.
3. Назаров Қиём. Жаҳон фалсафаси қомуси. Икки жилдлик. 1-жилд. Т.: Маънавият, 2023. 271-бет.
4. Назароқ Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. 2-жилд. Т.: Маънавият, 2023. 313-бет.